



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2022-yil 28-aprel _____

_____ 2/10- 2/20-139 -son

Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlariga

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2022-yil 22-apreldagi 13-son bayoni 22-bandida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5117-qaroriga muvofiq bakalavriat va magistratura bitiruvchilariga 2022/2023 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining **magistratura mutaxassisliklariga** hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga tanlovlarda milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega shaxslar ishtirok etishi tartibi joriy etilganligi to'g'risidagi targ'ibot ishlari olib borilishini ta'minlash topshirig'i berilgan.

Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan Sizdan oliy ta'lim muassasasida keng targ'ibot ishlarini olib borish, jumladan, oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb sahifasi, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari orqali bakalavriat va magistratura bitiruvchilariga yetkazishingiz so'raladi.

Vazirning birinchi
o'rinbosari



K.Karimov